

PRODYUSERLIK FAOLIYATINING FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

Gulimxan Joldasbaeva Xamit qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil tadqiqotchisi.

gulimxanjoldasbaeva27@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida prodyuserlik faoliyatining fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi masalalari ko'rib chiqiladi. Prodyuserlik faoliyatining huquqiy tabiati, prodyuser va ijodiy jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, intellektual mulkni himoya qilishda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunchilikning o'rni tahlil qilinadi. Zamonaviy madaniyat industriyasining eng talabgir yo'nalishlaridan biri bo'lgan musiqiy prodyuserlik faoliyatini huquqiy tartibga solish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan.

***Kalit so'zlar:** prodyuserlik faoliyati, musiqiy prodyuserlik, fuqarolik huquqi, mualliflik huquqi, intellektual mulk, shartnoma, ijrochi, prodyuser.*

ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ПРОДЮСЕРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы гражданско-правового регулирования продюсерской деятельности в Республике Узбекистан. Анализируются правовая природа продюсерской деятельности, особенности договорных отношений между продюсером и участниками творческого процесса, а также роль законодательства об авторском праве и смежных правах в обеспечении защиты интеллектуальной собственности. Особое внимание уделяется механизмам правового регулирования музыкального продюсирования как одного из наиболее востребованных направлений современной культурной индустрии.

***Ключевые слова:** продюсерская деятельность, музыкальное продюсирование, гражданское право, авторское право, интеллектуальная собственность, договор, исполнитель, продюсер.*

CIVIL LAW REGULATION OF PRODUCER ACTIVITY

ABSTRACT

This article examines the issues of civil law regulation of producer activity in the Republic of Uzbekistan. It analyzes the legal nature of producer activity, the specific features of contractual relations between producers and participants in the creative process, as well as the role of copyright and related rights legislation in ensuring the protection of intellectual property. Particular attention is paid to the legal mechanisms governing music production, which is one of the most demanded sectors of the modern cultural industry.

Keywords: *producer activity, music production, civil law, copyright, intellectual property, contract, performer, producer.*

KIRISH

Mamlakatimizda va xorijda o‘z ijodi bilan tinglovchilar hamda tomoshabinlar e’tiboriga sazovor bo‘lgan ko‘plab iste’dodli insonlar — shoirlar, yozuvchilar, musiqachilar, sahnalashtiruvchi rejissyorlar va aktyorlar ijod qilmoqda. Internet, xususan, turli ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi ijodkorlar o‘z san’atini keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu yo‘nalishda madaniyat industriyasining zamonaviy rivojlanish sharoitida prodyuserlik faoliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shou-biznes, musiqa industriyasi, kino va televideniyeining rivojlanishi samarali huquqiy tartibga solishni talab qiluvchi tadbirkorlik va ijodiy faoliyatning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Prodyuser ijodiy g‘oya va uning amaliy amalga oshirilishi o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘lib, loyihaning tashkiliy, moliyaviy va tijorat jihatdan ta’minlanishini amalga oshiradi.

“Prodyuser” atamasining qo‘llanilishi tahlili ushbu tushuncha teatr-tomosha asari, kinofilm yoki boshqa murakkab mualliflik huquqi obyektlarini yaratish va namoyish etishni tashkil etish hamda moliyalashtirish tashabbusi va javobgarligini o‘z zimmasiga olgan shaxsni anglatishini ko‘rsatadi. Shu bois prodyuserlik faoliyati mazkur obyektlarni yaratish, tayyorlash va namoyish etishni tashkillashtirish hamda moliyalashtirishga qaratilgan faoliyat sifatida tavsiflanadi. Natijada madaniyat va san’at asarlari yaratiladi hamda ular qonunchilikda madaniy boyliklar sifatida e’tirof etiladi. Mazkur boyliklarni yaratish va talqin etish esa ijodiy faoliyatning muhim shakli hisoblanadi.¹

¹ А. Н. Пухалев. ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРОДЮСЕРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РОССИИ И ЕВРОПЕЙСКИХ СТРАНАХ. <https://share.google/AXHFNoVVWJKIFXLtC>. 2017.

O‘zbekiston Respublikasida prodyuserlik faoliyati musiqa san’ati, konsert faoliyati va audiovizual mahsulotlar ishlab chiqarish sohalarida faol rivojlanmoqda. Prodyuserlik faoliyatiga bag‘ishlangan maxsus qonun mavjud bo‘lmasa-da, ushbu faoliyat fuqarolik qonunchiligi, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonunchilik hamda madaniyat va san’at sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi.

Prodyuserlik faoliyatining tushunchasi va huquqiy tabiati.

Prodyuserlik faoliyati ijodiy loyihalarni tashkil etish, moliyalashtirish, muvofiqlashtirish va targ‘ib qilishga qaratilgan professional faoliyat hisoblanadi. Prodyuserning asosiy vazifasi ijodiy mahsulotni yaratish va uni madaniy xizmatlar bozorida muvaffaqiyatli ilgari surish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat.

Musiqa industriyasida prodyuser keng ko‘lamli vazifalarni bajaradi: iste’dodli ijrochilarni izlash, musiqiy asarlarni yozib olish jarayonini tashkil etish, loyihalarni moliyalashtirish, reklama qilish, konsertlarni tashkil etish hamda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish. Shu tariqa, prodyuser faoliyati ijodiy, tashkiliy va tadbirkorlik elementlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan, prodyuserlik faoliyati prodyuser va ijodiy jarayonning boshqa ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan mulkiy va nomulkiy munosabatlar yig‘indisidan iborat. Mazkur munosabatlar shartnoma erkinligi, taraflarning tengligi va fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining qonuniy manfaatlarini himoya qilish tamoyillariga asoslanadi.

Hozirgi kunda mustaqil prodyuserlik faoliyati fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasida amalga oshiriladi. Bunda prodyuser shartnoma tomoni, kreditor yoki qarzdor, shuningdek boshqa huquq egasi sifatida ishtirok etishi mumkin. Shu sababli prodyuserlik faoliyati avvalo fuqarolik huquqi, xalqaro xususiy huquq, tijorat huquqi va mualliflik huquqi normalari bilan tartibga solinadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasida prodyuserlik faoliyati har doim ham tadbirkorlik faoliyati bo‘lavermaydi. Masalan, xayriya loyihalarida prodyuser umuman daromad olmasligi mumkin. Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga ko‘ra, har qanday huquq subyekti — jismoniy shaxs, tashkilot yoki davlat-huquqiy tuzilma prodyuser bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, prodyuser tijorat yoki notijorat tashkiloti ham bo‘lishi mumkin.

Prodyuserlik faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish prodyuser va ijodkorlar o‘rtasidagi munosabatlarni, shartnomaviy majburiyatlarni hamda intellektual mulk huquqlarini belgilab beradi. Bu jarayon O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Undagi normalari fuqarolik-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi,

o'zgarishi va bekor bo'lish tartibini tartibga soladi hamda tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqiy maqomini belgilaydi. Prodyuserlik faoliyati kreativ iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda kreativ iqtisodiyot ko'plab davlatlarda iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda. Jahon yalpi ichki mahsulotining 3-7 foizi ushbu soha hissasiga to'g'ri keladi. Mamlakatimizda 2024-yilda kreativ iqtisodiyotning YIMdagi ulushi 3,7 foizni yoki 56,8 trillion so'mni tashkil etgan, eksport hajmi esa 770,6 million dollarga yetgan, sohada 319 ming nafardan ortiq aholi band.²

2026-yil 16-fevralda qabul qilingan PQ-64-son "Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ko'ra, 2030-yilga qadar kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilandi:

- kreativ iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 5 foizga – 145 trln so'mga yetkazish;
- kreativ industriya mahsulotlari va xizmatlari eksportini 1 mlrd AQSH dollaridan oshirish;
- sohada amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida ish o'rinlarini 500 mingtaga yetkazish.

Ijodiy loyihani amalga oshirish jarayonida prodyuser qo'shiq matni mualliflari, bastakorlar, ijrochilar, rejissyorlar, ovoz rejissyorlari, tadbir tashkilotchilari va reklama agentliklari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishadi. Ushbu munosabatlarning har biri tegishli huquqiy rasmiylashtirishni talab qiladi.

Prodyuserlik faoliyatida eng ko'p qo'llaniladigan shartnomalar quyidagilardan iborat:

- haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi;
- agentlik shartnomasi;
- topshiriq shartnomasi;
- litsenziya shartnomasi;
- mutlaq huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish shartnomasi;
- buyurtma asosida asar yaratish shartnomasi.

Alohida ahamiyatga ega bo'lgan prodyuserlik shartnomasi prodyuser va ijrochi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Unda taraflarning huquq va majburiyatlari, loyihani moliyalashtirish shartlari, daromadlarni taqsimlash tartibi, hamkorlik muddati hamda ijodiy faoliyat natijalaridan foydalanish masalalari belgilanadi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish va yangi madaniyat maskanlari loyihalari taqdimoti. 12.02.2026. <https://share.google/KiTfsrK1vR5xk1I85>.

Shartnomaviy munosabatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilishi nizolar yuzaga kelishi xavfini kamaytiradi va loyiha ishtirokchilarining mulkiy manfaatlarini himoya qiladi. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning prodyuserlik faoliyatidagi o‘rni

Prodyuserlik faoliyatini huquqiy tartibga solishning eng muhim elementlaridan biri mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonunchilik hisoblanadi. Raqamlashtirish va internet platformalarining keng tarqalishi sharoitida intellektual mulkni himoya qilish masalalari yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Audiovizual asar yaratilishini tashkil etish nafaqat ovoz bilan ishlashni, balki asarni yaratish uchun zarur bo‘lgan boshqa materiallar bilan ishlashni ham nazarda tutadi. Biroq bizni prodyuserning aynan ijodiy hissasi qiziqtiradi. Tashkiliy faoliyat, uning ko‘lami qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar, ijodiy faoliyat hisoblanmaydi. Shu sababli, prodyuser faoliyatida ijodiy elementni aniq ajratib ko‘rsatish qiyin.³

Musiqiy asarlar, qo‘shiq matnlari, aranjirovkalar, fonogrammalar va videokliplar intellektual mulk obyektlari hisoblanadi. Bunday obyektlardan foydalanish faqat tegishli huquqiy asoslar mavjud bo‘lgan taqdirdagina mumkin.

Musiqiy mahsulot yaratilishini moliyalashtiruvchi prodyuser intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlarning qonuniy rasmiylashtirilishidan manfaatdor bo‘ladi. Shu maqsadda asar mualliflari, bastakorlar, aranjirovkachilar va ijrochilar bilan tegishli shartnomalar tuziladi. Turdosh huquqlar ijrochilar, fonogramma ishlab chiqaruvchilari va eshittirish tashkilotlarining manfaatlarini himoya qiladi. Natijada musiqiy mahsulotni huquqiy muhofaza qilishning kompleks tizimi yaratiladi va ijodiy jarayon ishtirokchilariga o‘z mehnati natijalaridan foydalanish uchun haq olish imkoniyati ta‘minlanadi. Internet tarmog‘ida asarlardan foydalanish masalalari alohida ahamiyatga ega. Musiqiy kontentni raqamli platformalarda joylashtirish mualliflik va turdosh huquqlarga rioya etishni, shuningdek tegishli litsenziya va ruxsatnomalarning mavjud bo‘lishini talab qiladi.

Musiqiy prodyuserlik prodyuserlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakllaridan biridir. U musiqiy asarlarni yaratish, yozib olish, targ‘ib qilish va tijorat maqsadlarida foydalanish jarayonlarini qamrab oladi. Zamonaviy musiqiy prodyuser nafaqat tashkiliy vazifalarni bajaradi, balki loyiha ijodiy konsepsiyasini shakllantirishda ham ishtirok etadi. U ijrochini targ‘ib qilish strategiyasini belgilaydi, musiqiy platformalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi, reklama tadbirlari va konsert faoliyatini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasida musiqiy prodyuserlik konsert-tomosha faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Konsertlar va gastrol safarlarini tashkil etish qonunchilikda

³ А.А. Иванов. ПРОДЮСЕР В ОТНОШЕНИЯХ С СУБЪЕКТАМИ АВТОРСКИХ И СМЕЖНЫХ ПРАВ. <https://share.google/Xe0OcXAe6XHI2HwM7>. 2015.

belgilangan talablarni bajarish hamda zarur ruxsatnomalarni olishni talab qiladi. Musiqiy loyihalarni targ'ib qilish televideniye reklamasi, internet resurslari va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilgani sababli reklama to'g'risidagi qonunchilik normalari ham muhim ahamiyatga ega. Bunda prodyuser reklama ma'lumotlarining ishonchliligini ta'minlash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga oid talablarni bajarishi shart. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi musiqiy biznesning mohiyatini sezilarli darajada o'zgartirdi. Zamonaviy prodyuserlar musiqiy kontentni targ'ib qilish uchun striming xizmatlari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalardan faol foydalanmoqda. Bu esa raqamli muhitda intellektual mulkni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

Mavjud normativ-huquqiy bazaga qaramasdan, O'zbekistonda prodyuserlik faoliyatini tartibga solish bir qator muammolarga duch kelmoqda. Ulardan biri prodyuserlar faoliyatini kompleks ravishda tartibga soladigan maxsus normativ-huquqiy hujjatning mavjud emasligidir. Mazkur holat bir qator muammolarni keltirib chiqaradi:

- prodyuser tushunchasining qonunchilikda yagona va aniq ta'rifi mavjud emas
- prodyuserning huquq va majburiyatlari to'liq belgilab qo'yilmagan;
- prodyuser, muallif, ijrochi va investor o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda bo'shliqlar mavjud;

2024-yilda qabul qilingan Kreativ iqtisodiyot to'g'risidagi Qonun kreativ mahsulotlarni yaratish va tarqatish bilan bog'liq munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qilsa-da, unda prodyuserlik faoliyatining huquqiy maqomi va xususiyatlari alohida tartibga solinmagan.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi internet tarmog'ida mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni talab qiladi. Musiqiy kontentning noqonuniy tarqatilishi huquq egalari manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda ijodiy faoliyat samaradorligini pasaytiradi. Musiqiy prodyuserlik sohasidagi shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish, intellektual mulkni himoya qilishni kuchaytirish va ijodiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, musiqa industriyasi ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini rivojlantirish, ularning fuqarolik va mualliflik huquqi sohasidagi bilimlarini oshirish ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

XULOSA

Prodyuserlik faoliyati O'zbekiston Respublikasi zamonaviy madaniyat industriyasida muhim o'rin egallaydi. Uning samarali faoliyat yuritishi tegishli

fuqarolik-huquqiy tartibga solishsiz mumkin emas. Bunday tartibga solishning asosini fuqarolik qonunchiligi, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunchilik, shuningdek madaniyat, reklama va konsert faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Huquqiy tartibga solish tizimida markaziy o'rinni shartnoma egallaydi. Aynan shartnoma ijodiy jarayon ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilaydi hamda ularning mulkiy manfaatlarini himoya qiladi. Prodyuserlik faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish musiqa industriyasining yanada rivojlanishiga, madaniyat sohasining investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga va O'zbekiston Respublikasining ijodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi. Fuqarolik kodeksi. 29.08.1996.
2. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni. 20.07.2006.
3. <https://share.google/mHQLrvHRcrw3sxtDp>
4. O'zbekiston Respublikasining "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi Qonuni. 03.10.2024. <https://share.google/zfH4GrcLnksWyZ0wL>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish va yangi madaniyat maskanlari loyihalari taqdimoti. 12.02.2026. <https://share.google/KiTfsrK1vR5xk1I85>.
6. А. Н. Пухалев. ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРОДЮСЕРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РОССИИ И ЕВРОПЕЙСКИХ СТРАНАХ.
7. <https://share.google/AXHFNoVVWJKIFXLtC>. 2017.
8. А.А. Иванов. ПРОДЮСЕР В ОТНОШЕНИЯХ С СУБЪЕКТАМИ АВТОРСКИХ И СМЕЖНЫХ ПРАВ. <https://share.google/Xe0OcXAe6XHI2HwM7>. 2015.